

EKSPERTIZA O‘TKAZISH BO‘YICHA
1280-E -sonli SHARTNOMA

21.12.2021 y.

Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» Davlat unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi bosh direktor M.Inoyatov bir tomondan va «O‘zbekneftgaz» aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Buyurtmachi) nomidan ushbu jamiyat tomonidan tasdiqlangan Gazli neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi to‘g‘risidagi nizom va 21.06.2021 yildagi 12-2-73-sonli ishonchnomaga asosida faoliyat ko‘rsatuvchi Gazli neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi boshlig‘i X.Nazirovni timsolida ikkinchi tarafdan,

birgalikda «Taraf» deb ataladiganlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.09.2018 yildagi «O‘zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PK-3953-sonli qarori 2-bandi b) kichik bandini 3-kichik xatboshisiga muvofiq Buyurtmachi narxlarini konun xujjatlariga muvofiq kat’iy belgilangan loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish bilan bogliq davlat xaridlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish yo‘li bilan amalga oshirish huquqiga ega ekanligini hisobga olib, quyidagilar to‘g‘risida ushbu shartnomani (keyingi o‘rinlarda – Shartnoma) tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, Buyurtmachining topshirig‘i bo‘yicha: «Yangiqazgan konida qo‘shimcha 36, 37, 38, 39, 40 - sonli quduqlarni o‘zlashtirish» ob‘ektining loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish majburiyatini oladi, Buyurtmachi, uz navbatida, ekspertizadan o‘tkazish ishlari uchun to‘lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

1.2. Ekspertizani o‘tkazish muddati mazkur shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq Buyurtmachi tomondan oldindan pul mablag‘lari o‘tkazilgandan so‘ng 30 ish kuni, agar Buyurtmachiga hujjatlarni taqdim etish bo‘yicha (kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risida) xat yuborilgan bo‘lsa, ishlarni bajarish muddati Bajaruvchining xatida belgilangan davrga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

1.3. Ekspertizadan o‘tkazishga Buyurtmachining 20.12.2021 yildagi №28468-sonli elektron murojaati asos hisoblanadi.

1.4. Ekspertizadan o‘tkazish ishlarining yakuniy natijasi ekspert xulosasi hisoblanadi.

1.5. Bajaruvchi mustaqil ravishda hamda uchinchi shaxslarni jalb etish bilan Buyurtmachi manfaatlarini ko‘zlab ishlarni bajaradi.

II. SHARTNOMA QIYMATI VA O‘ZARO HISOB-KITOB TARTIBI

2.1. Loyiha smeta hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazishning shartnomaviy narxlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-son qarorining 6-ilovasiga muvofiq belgilanadi.

Shartnoma qiymatining hisob-kitobi:

$$4\,491\,266\,520 * 0,1\% = 4\,491\,267 + 15\% \text{ QQS}$$

Jami to‘lovga: 5 164 657,05 (besh million bir yuz oltmish to‘rt ming olti yuz ellik yetti) so‘m 5 tiyin, shu jumladan QQS 15% 673 690,05 (olti yuz yetmish uch ming olti yuz to‘qson) so‘m 5 tiyin.

2.2. Buyurtmachi Bajaruvchiga shartnoma imzolangandan so‘ng 10 (o‘n) kun ichida shartnoma umumiy qiymatining 100 % miqdorini oldindan to‘lovni amalga oshiradi.

2.3. Ekspertizadan o‘tkazish ishlari bajarilib, o‘zaro to‘liq hisob-kitob qilingandan so‘ng, Bajaruvchi aybdor bo‘lmagan taqdirda mazkur shartnoma predmeti bo‘yicha takroran ekspertizaga taqdim etilsa, takroriy ekspertizadan o‘tkazish uchun xaq to‘lash yangi shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.

2.4. Shartnoma majburiyatlari bekor qilinganda, shartnomaviy hujjatlar (bajaruvchining nusxalari) hamda qayta ishlashga va takomillashtirishga qaytarilgan loyiha materiallari taqdim etilmaganda, bajarilgan ish hajmidan qat’iy nazar to‘langan mablag‘lar qaytarilmaydi.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bajaruvchi taqdim etilgan loyiha xujjatlarini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy xujjatlariga muvofiq ekspertizadan o‘tkazish majburiyatini oladi;

3.2. Buyurtmachi mazkur shartnoma yuzasidan quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) Bajaruvchiga ekspertizadan o‘tkazish uchun zaruriy tegishli hujjatlarni o‘z vaqtida to‘liq taqdim etish;

b) ekspertizadan o‘tkazish xizmati haqini o‘z muddatida shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq to‘lovni amalga oshirish;

v) ekspertiza xulosasini olish bilan birgalikda ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni qabul qilib olish.

Hujjatlar olib ketilmagan taqdirda Bajaruvchi ularning saqlanishi uchun javob bermaydi.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI, NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

4.1. Buyurtmachi Bajaruvchiga bajarilgan ishlar uchun to‘lovning kechiktirilgan har bir kuni uchun shartnoma bahosining 0,4% miqdorida penya to‘laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.2. Bajaruvchi Buyurtmachiga ekspertizadan o‘tkazish ishlarini bajarmaganda yoki o‘z vaqtida bajarmaganda kechiktirilgan har bir kun uchun shartnoma bahosining 0,5 % miqdorida penya to‘laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.3. Tomonlarning mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarligi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

4.4. Mazkur shartnomaning bajarilishi yuzasidan tomonlar o‘rtasida kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchilik muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi.

4.5. Nizolarni muzokoralar yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda, kelishmovchiliklarni bartaraf etish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'rnatilgan tartibda Toshkent shahar tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

V. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI

5.1. Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda xaqiqiy hisoblanadi.

5.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasini amaldagi konun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

5.3. Buyurtmachi xizmatlarning belgilangan bahosini to'liq to'lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga hakli, shartnoma Bajaruvchining aybli xarakatlari tufayli bekor qilingan hollar bundan mustasno.

5.4. Bajaruvchi ushbu shartnoma bekor qilinishi tufayli Buyurtmachiga yetkazilgan zararining hammasini to'lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga hakli, shartnoma Buyurtmachining aybi bilan bekor qilingan hollar bundan mustasno.

5.5. Shartnomani bekor qilish hakida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 3 kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

VI. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

6.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar:

korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid bo'lgan har qanday xatti-harakatlarini amalga oshirmaslik;

shu jumladan pora taklif qilmasligi, va'da bermasligi, tovlamachilik qilmasligi, to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita pora olishiga, ya'ni moddiy boyliklar yoki mulkiy imtiyozlarni olishga rozilik bermasligi, pora beruvchining manfaatlari yo'lida «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK xodimi o'z lavozimidan foydalangan holda amalga oshirishi yoki amalga oshirishi mumkin bo'lgan muayyan xarakatlarni bajarmasligi shart.

Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish uchun choralar ko'rilishini kafolatlaydilar.

6.2. Agar tomonlar shartnoma shartlarining buzilishiga duch kelsa, shuningdek, «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK xodimlarining ushbu shartnomaga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lgan xatti-xarakatlari, shu jumladan korruptsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etilganligi haqida quyidagi aloqa kanallariga murojaat qilish mumkin: «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK ishonchli telefonlari 71 210 11 04, 71 244 10 47.

VII. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmaz kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Fors-major holatlari deb quyidagilar hisoblanadi:

- tabiiy ofatlar, yong'in, epidemiya, avariya hamda boshqa omillar va holatlar, bunday holda majburiyatlarni bajarish muddatlari fors-major holatining davom etish muddatiga mutanosib tarzda uzaytiriladi.

7.2. Ikkala taraf mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga to'sqinlik qiluvchi fors-major holatlarining boshlanganligi va tugaganligi to'g'risida bir-birlarini zudlik bilan xabardor qilishlari lozim.

7.3. Fors-major holatlarini vaj qilib keltirayotgan taraf ularning tasdig'i sifatida vakolatli davlat organining tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Shartnoma tomonlar imzolaganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi. Shartnomani imzolash sanasi muqaddimada ko'rsatiladi.

8.2. Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amal qiladi.

8.3. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega va taraflarga bir nusxadan beriladi.

Tomonlarning manzillari va rekvizitlari:

Bajaruvchi:

O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi
xuzuridagi «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi»

DUK

Manzil: 100012, Toshkent sh., Abay ko'ch., 6-uy
X/R: 2020 8000 2008 8257 3001
STIR: 305 550 214 IFUT: 71120
Bank: «Turon bank» MAB-ATB
Bank kodi: 00446
Telefon: 244-04-85, 244-11-26

Buyurtmachi:

«O'zbekneftgaz» AJ

Manzil: Toshkent sh, Istiqbol k-21
X/R: 2020 0000 28000 2433 9001
Bank: «O'zSQB» Yashnobod f-l
STIR: 200 837 914 Bank kodi: 00432
IFUT: 84111
Telefon: 71-236-02-10

Bosh direktor _____ M.Inoyatov

Yurist _____

Boshqarma boshlig'i _____ X.Nazirov

Yurist _____

DALOLATNOMA

21.12.2021 yildagi 1280-E -sonli shartnomaga asosan
bajarilgan ishlarni topshirish - qabul qilish bo'yicha
«_____» _____ 2021 y.

Biz, quyida imzo chekuvchilar, Qurilish Vazirligi huzuridagi "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUK Nizomi asosida faoliyat yurituvchi Bosh direktor - M.Inoyatov va BUYURTMACHIning vakili 21.06.2021 yildagi № 12-2-73 sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi O'zbekneftgaz» AJning Gazli neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi boshlig'i X.Nazirov «Yangiqazgan konida qo'shimcha 36, 37, 38, 39, 40 - sonli quduqlarni o'zlashtirish» ob'ektining loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi 21.12.2021 yildagi 1280-E-sonli shartnomaga asosan ekspert xulosasi Buyurtmachiga berilgani haqida tuzdilar.

Buyurtmachi ekspert xulosasini qabul qildi va xulosaning sifati va to'liqligi bo'yicha bajaruvchiga e'tirozlari mavjud emas.

5 164 657,05 (besh million bir yuz oltmish to'rt ming olti yuz ellik yetti) so'm 5 tiyin, shu jumladan QQS 15% 673 690,05 (olti yuz yetmish uch ming olti yuz to'qson) so'm 5 tiyin.

Topshirdi Bajaruvchi:

O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi xuzuridagi
"Shaharsozlik hujjatlari
ekspertizasi" DUK

Manzil: 100012, Toshkent sh., Abay ko'ch., 6-uy

X/R: 2020 8000 2008 8257 3001

Bank: "Turon bank" MAB ATB

STIR: 305 550 214 Bank kodi: 00446

IFUT: 71120

Telefon: 244-04-85, 244-11-26

Qabul qildi Buyurtmachi:

«O'zbekneftgaz» AJ

Manzil: Toshkent sh, Istiqbol k-21

X/R: 2020 0000 28000 2433 9001

Bank: "O'zSQB" Yashnobod f-1

STIR: 200 837 914 Bank kodi: 00432

IFUT: 84111

Telefon: 71-236-02-10

Bosh direktor



M.Inoyatov

Boshqarma boshlig'i

X.Nazirov